

## Xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati

Zarnigor Burxon qizi Davronova  
Buxoro xalqaro universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbek xalq og'zaki ijodining eng yorqin namunalaridan biri bo'lgan xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Xalq qo'shiqlari orqali yoshlarda milliy qadriyatlarini anglash, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, yurtga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari yoritiladi. Shu bilan birga, xalq qo'shiqlarining badiiy-estetik, axloqiy va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Xalq qo'shiqlari inson hayotining turli jabhalarini qamrab olib, quvonch, g'am, muhabbat, sadoqat, mehnat, vafo kabi histuyg'ularni ifoda etadi. O'zbek xalqining boy og'zaki ijodi asrlar davomida xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy dunyosi va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etib kelgan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, xalq qo'shiqlari, tarbiya, milliy qadriyat, axloq, vatanparvarlik, fazilatlarni shakllantirish, pedagogik jihatlar, axloq, estetika

## The educational significance of folk songs

Zarnigor Burkhan qizi Davronova  
Bukhara International University

**Abstract:** This article discusses the educational significance of folk songs, which are one of the brightest examples of Uzbek folk oral art. The issues of forming national values, patriotism, hard work, respect for parents, and loyalty to the country in young people through folk songs are highlighted. At the same time, the artistic, aesthetic, moral and pedagogical aspects of folk songs are analyzed. Folk songs cover various aspects of human life and express feelings such as joy, sorrow, love, loyalty, work, and loyalty. The rich oral tradition of the Uzbek people has embodied the lifestyle, traditions, spiritual world, and moral views of the people for centuries.

**Keywords:** folk oral art, folk songs, education, national values, morality, patriotism, formation of qualities, pedagogical aspects, morality, aesthetics

O'zbek xalqining boy og'zaki ijodi asrlar davomida xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy dunyosi va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etib kelgan. Bu ijodning eng muhim turlaridan biri – xalq qo'shiqlari hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari inson hayotining turli jabhalarini qamrab olib, quvonch, g'am, muhabbat, sadoqat,

mehnat, vafo kabi his-tuyg‘ularni ifoda etadi. Ayniqsa, ularning tarbiyaviy kuchi beqiyosdir. O‘zbek xalq qo‘sishqlari bolalar, o‘smirlar, yoshlar va hatto kattalar uchun ham axloqiy, estetik va ma’naviy tarbiyaning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq qo‘sishqlari o‘zining mazmun-mohiyati bilan insonni yaxshilikka, halollikka, mehnatsevarlikka, sadoqatga chorlaydi. Ular hayotiy tajriba asosida yaratilganligi bois, tinglovchida samimi tuyg‘ularni uyg‘otadi. Har bir xalq qo‘sish‘i o‘zida muayyan g‘oyani, axloqiy saboqni olib keladi. Masalan, “Ilila yor”, “Oyijon”, “bilaguzuk”, “Chaman ichra” kabi qo‘sishqlar yosh avlodni yurtga sadoqat, ota-onaga hurmat, sadoqatli muhabbat, insoniylik fazilatlariga o‘rgatadi.

O‘zbek xalq qo‘sishqlari orqali yoshlarimiz o‘z milliy qadriyatlarini anglaydi. Qo‘sishqlarda xalqimizning urf-odatlari, an’analari, marosimlari, oilaviy hayoti, tabiatga bo‘lgan munosabati, jamiyatdagi o‘rni ifoda etiladi. Ayniqsa, to‘y, maraka, mehnat, ijtimoiy hayot, mehr-muhabbatga bag‘ishlangan qo‘sishqlarda xalqning hayotiy falsafasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu esa yoshlar ongida milliy o‘zlikni shakllantiradi.

Xalq qo‘sishqlari axloqiy tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Ular orqali bolaga ijobiy xulq-atvor namunalarini singdirish mumkin. Masalan, “Oyijon” qo‘sish‘ida onaga bo‘lgan cheksiz muhabbat kabi his-tuyg‘ular yoritiladi.

Oyijon, oyijon-a

Qulqqinam og‘ridi-ya,

Qulqqinangdan oying o‘rgilsin,

Nimalarga og‘ridi-ya.

Do‘konlarda bo‘lar emish,

Bozorlarda sotar emish,

Ana uning nomi tilla zirak

O‘shanga og‘ridi-ya,

O‘shanga og‘risa-yo, alam-o, alam.

Oyijon, oyijon-a,

Bilakkinam og‘ridi-ya,

Bilakkinangdan oying o‘rgilsin,

Nimalarga og‘ridi-ya.

Zargarlarda bo‘lar ekan.

Do‘konlarda sotar ekan,

Uning nomi bilaguzuk

O‘shanga og‘ridi-ya.

O‘shanga og‘risa-yo, alam-o, alam.

Xalq qo‘sishqlarida kibr, hasad, xiyonat kabi salbiy fazilatlar qoralanib, halollik, muruvvat, sabr-toqat kabi jihatlar ulug‘lanadi.

Xalq qo'shiqlari ko'p hollarda tarixiy voqealarning ham aks-sadosi bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali xalq boshidan kechirgan tarixiy sinovlar, ijtimoiy muammolar, hayotiy kurashlar ifoda etilgan. Bu qo'shiqlar yosh avlodni o'z tarixiga hurmat ruhida tarbiyalaydi, ularni xalqning o'tmishiga befarq bo'lmaslikka chorlaydi.

Xalq qo'shiqlari o'zining musiqiy ohangi, poetik tili, badiiy ifoda vositalari orqali tinglovchining estetik didini rivojlantiradi. Ular bolalarda musiqiy tafakkurni, go'zallikka intilish, badiiy nutqni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mактабгача yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan xalq qo'shiqlari tarbiyachilar va ota-onalar uchun boy tarbiyaviy manbadir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'zbek xalq qo'shiqlari – bu faqat musiqiy meros emas, balki xalq donishmandligining, hayotiy tajribasining, axloqiy-me'yoriy qarashlarining aksidir. Ular yosh avlod tarbiyasida beqiyos vosita bo'lib, ularni Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, insoniy fazilatlar, halollik vaadolat ruhida kamol toptiradi. Shu bois, xalq qo'shiqlarini saqlash, o'rganish, ularni ta'lim-tarbiyada faol qo'llash zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas bo'lagi bo'lishi zarur. Bunday musiqiy meros orqali biz nafaqat madaniy boyligimizni asraymiz, balki kelajak avlodni yuksak insoniylik ruhida tarbiyalaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov R. Xalq musiqa ijodiyoti va amaliyoti. Toshkent. "Ma'rifatmadadkor" nashriyoti. 2002 yil.
2. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi (ma'ruzalar matni) Toshkent 2008 yil.
3. Yuldasheva N., Raxmatova N. O'zbek musiqa adabiyoti. Toshkent. "Iqtisodmoliya" 2010 yil.
4. I.I.Axtamov. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
5. I.I.Axtamov. The role of classical music art in higher musical and pedagogical education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 4 No. 6 (2023): wos 2023-06-17
6. I.I.Axtamov. Organization of classes on listening to samples of the national makom in primary schools. Academia Science. In Volume 4, Issue 5 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR) May 2023
7. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodxonligi faoliyatining o'rni. Journal of advanced research and stability. 22.12.2022
8. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o'rni. Science and Education 3 (1) 2022-01-18
9. I.I.Axtamov. Introducing students to the art of makom through music culture lessons. eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 03. 2021-06-10

10. I.I.Axtamov. Maqom an'anaviy kasbiy musiqa namunalarini o'rganishda ovoz xususiyatlari. Scientific progress. ISSN 2181-1601/ 2021/03 B.648-653.
11. К.Б.Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383
12. К.Б.Холиков. Роль теоретичности и применения информационных систем в области теории, гармонии и полифонии музыки. Scientific progress 2 (3), 1044-1051
13. К.Б.Холиков. Образовательное учреждение высшего профессионального образования в музыкальной отрасли Узбекистана. Scientific progress 2 (6), 946-951
14. К.Б.Холиков. Задачи хора для вырождающегося нагруженного управления косвенного, противоположного и параллельно-двигающегося голоса. Scientific progress 2 (3), 690-696
15. К.Б.Холиков. Магнитные свойства тяготение к человеку многоголосного произведения музыке. Scientific progress 2 (3), 728-733
16. К.Б.Холиков. Дифференцированное обучение студентов на занятиях гармонии и анализа музыкальных произведений. Scientific progress 2 (3), 1038-1043
17. К.Б.Холиков. Звуковысотная организация и последовательность частей формы музыки. Scientific progress 2 (4), 557-562
18. К.Б.Холиков. Свободой выбора исполнительского состава в эпоху ренессанса. Scientific progress 2 (4), 440-445
19. К.Б.Холиков. Этапы формирования и перспективы развития инфраструктуры хорового коллектива. Scientific progress 2 (3), 1019-1024
20. К.Б.Холиков. Полуимпровизационные формы профессиональной музыки. Scientific progress 2 (4), 446-451
21. К.Б.Холиков. Область применения фугированных форм. Тройные и четверные фуги. Фугетта и Фугато. Scientific progress 2 (1), 1052-1059
22. К.Б.Холиков. Проблематика построения современных систем мониторинга объектов музыкантов в сфере фортепиано. Scientific progress 2 (3), 1013-1018
23. К.Б.Холиков. Содержание урока музыки в общеобразовательном школе. Scientific progress 2 (3), 1052-1059
24. К.Б.Холиков. Представление результатов измерений системы контроля параметров дыхания в вокальной пении. Scientific progress 2 (3), 1006-1012
25. К.Б.Холиков. Гармония к упражнению голоса их роль в регуляции мышечной деятельности при вокальной музыки. Scientific progress 2 (3), 705-709
26. К.Б.Холиков. Область применения двойные фуги. Scientific progress 2 (3), 686-689

27. К.Б.Холиков. Музыкально театральные драмы опера, оперетта. *Science and Education* 3 (2), 1240-1246
28. К.Б.Холиков. Фактуры, музыкальной формы, приводящие к структурной, драматургической и семантической многовариантности произведения. *Scientific progress* 1 (4), 955-960
29. К.Б.Холиков. Подбор состава хора и изучение музыкального материала в школьном возрасте 10-13 лет. *Scientific progress* 2 (3), 999-1005
30. К.Б.Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389